

**BADIIY ADABIYOTDA KULGI FAUNA VA FLORA MASALASI**

**Xaitov Xamza Axmadovich**  
*Buxoro davlat Pedagogika instituti*  
*dotsenti, f.f.f.d.(PhD).*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada lingvistik florionimlar va faunimlarning zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga ta'siri va badiiy asarlarda kulgi uyg'otishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Tashqi ko'rinish, aql-farosat, xarakter xususiyatlar, o'xshab ketuvchi meva, gul, o'simlik, poliz ekinlari, o'xshatib, mutoyiba, hazil va yengil kulgi, D.S.Lixachev, o'rmon va dalalar xudosi, Rim mifologiyasida hayvonlar podasi homiysi va hokazo.

Kishilik jamiyatida insonlar dunyoqarashining shakllanishi va rivojlanishi ma'lum bir fan tarmoqlari qonuniyatlari asosida tahlil etiladigan ilmiy-nazariy hodisa hisoblanadi. Adabiyot inson ruhiy-ma'naviy olamini boyituvchi muhim vositadir. Badiiy asarlardagi turli obrazlar tizimi, inson psixologiyasi va tabiati, xarakterini tahlil qilish imkonini beradi. O'zbek adabiyotida badiiy obraz estetik kategoriyalardan biri hisoblanadi. Obrazning ruhiy jihatdan asoslanganligi birinchi navbatda uning badiiyatini ta'minlasa, ikkinchidan, asarning estetik qimmatini ko'rsatishga xizmat qiladi. Badiiy asar tahlilida bir necha fanlar kesishuvida yondashish obraz mohiyatiga chuqurroq kirish va insonni har tomonlama o'rganish imkonini beradi. Biz oldingi tadqiqotlarimizda lingvistik hodisalardan makoronizm, okkozionalizm, paralingvistizmlarning badiiy asar taraqqiyotiga estetik ta'sirini o'rgandik.

Badiiy asarlarda obrazlar tizimini tahlil qilishda florionimlarning o'ziga xos o'rni bor. Florionimlar- inson tabiati va ijtimoiy darajasini o'simlik nomlari orqali ifodalashdir. Florionimlar tillar tarixida uzoq o'tmishga ega ifoda turi bo'lib, og'zaki va adabiy tilda keng qo'llaniladi. Ulardan samarali foydalanish, ayniqsa, o'zbek adabiyoti durdonalarining badiiy qimmatini yanada oshirishga, hamda badiiy asarlarda mutoyiba va kulgi uyg'otishda muhim ahamiyat kasb etadi. Inson tabiati, ichki va tashqi dunyosini ochib berish, badiiy obrazning xarakter xususiyatini, dunyoqarashi va saviyasini talqin qilishda, jumladan, asar ta'sirchanligini kuchaytirishda florionimlarning o'rni beqiyos. Florionimlarni kundalik hayotimizda, badiiy asarlar tarkibida juda ko'p uchraydigan laqablardan farqlash lozim. Laqab istalgan terminlar, predmetlar bilan ifodalanishi mumkin. Florionimlar esa insonlarga xos tashqi ko'rinish, aql-farosat, xarakter xususiyatlarni o'xshab ketuvchi meva, gul, o'simlik, poliz ekinlariga o'xshatib, mutoyiba, hazil va yengil kulgi chiqarishda namoyon bo'ladi. "Florionimlarni dunyo mamlakatlari, ingliz, amerika yozuvchilari asarlarida juda ko'p uchratish mumkin".<sup>1</sup> Inson xarakterini ochib berish uchun foydalaniladigan florionimlarning eng ko'p uchraydigan holatlari bu komparativ birliklar va ularning metaforik qo'llanishidir. Ular badiiy asarlarda muallif fikrini bayon etishda muhim rol o'ynaydi. Shuni alohida ta'kidlash joyizki, bir florionim turli kontekstda insonni xarakterlovchi bir necha ma'noga ega bo'lishi mumkin. Masalan "Humo Xartum deganlari mirzaterakdek novcha va ingichka bir chol ekan. Uning noksimon kallasi bo'yin ustida emas, yelkalari orasida qistirig'lik turganga o'xshaydi".<sup>2</sup> Ushbu badiiy parchada insonning baland bo'yini tik va baland o'suvchi "mirzaterak" daraxtiga o'xshatilsa, beo'xshov va xunuk boshi esa nokka o'xshatiladi. Shu orqali badiiy asarni o'qiyotgan kitobxonda yengil

<sup>1</sup> Boltayeva Sh. "O'zbek va ingliz tillaridagi florionimlar tahlili". Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2012-yil 5-son. B-7-10.

<sup>2</sup> Obidjon Anvar "Alamazon va uning piyodalari". Toshkent. Sharq. 2019. B-31.

kulgi paydo bo'ladi. Yuqorida keltirilgan misoldan ma'lum bo'ladiki, florionimlarning metaforik xarakteri turli xil komparativ birliklar, kontekstlarda u yoki bu semani ochishga xizmat qiladi. Ya'ni, u aynan bir o'zgarimas sistemada turmaydi. Florionimlar nutqimizda ma'lum ma'noni ifoda etuvchi frazeologik iboralar tarkibida ham juda ko'p uchraydi. Masalan, "tonggacha shaftoli qoqdi"(sovuq qotdi ma'nosida), "tarvuzi qo'ltig'idan tushdi"(umidi puchga chiqdi), "qovun tushirib qo'ymoq"(suhat mavzusida qovushmaydigan noo'rin so'z aytmoq), "olma pish og'zimga tush deb turmoq"(beg'am, beparvo, boqimanda kishilar uchun ishlatiladigan ibora) va hokazo. O'zbek xalq folklorining paremik janrlaridan iborat bo'lgan xalq maqollarida ham metaforik florionimlarni uchratish mumkin. Masalan, "ona bilan bola- gul bilan lola", " arpaga o'rim, bug'doyga ko'rim", "bir yil tariq eksang, bir yil shudgor qil" kabi. Ayniqsa, metaforik florionimlar xalqimiz orasida juda ko'p qo'llanadigan aforizmlarda uchraydi. Florionimlar aforizmlar tarkibida kinoya, istehzoli kulgi va tashbehli satiric kulgi ham hosil qilish xususiyatiga ega. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi aforizmlarni keltiramiz. "Yaxshi qovunni it yeydi"- aqilli, farosatli va nazokatli qizni xulq-atvori yaxshi bo'lmagan yigit bilan turmush qurganini ifodalovchi bu xalq aforizmidagi qiz qovun florionimi orqali ifodalangan. Bu holat kinoya kulgisini keltirib chiqaradi. "Sariq somon yerda qolmas" aforizmidagi esa qari qizning ham xaridori chiqadi degan ma'no mavjud bo'lib, somon qadr topmagani baxtidan kechikkan qizga kinoyali tarzda o'xshatilgan. "Qizdan chiroq bo'lmas, noskadidan yaroq bo'lmas" xalq aforizmi orqali qizlarni ota xonadonini tark etish holati bilan bir qatorda noskadi o'simlik florionimi arzimasi matoh sifatida kinoyali kulgi ostiga olingan. Biz kundalik hayotimizda " qovoq bosh", "bodring kalla" kabi metaforik florionimlarni ham uchratamiz. Bu kabi atamalar avom, savodsiz kishilarni kulgi ostiga olish uchun qo'llanadi. Florionimlar turli toyifa kishilarga laqab sifatida ham juda ko'p ishlatiladi:

"Qovoq devona belidagi qovoqlardan bitta egri maymog'ini ko'rsatib, -Manov Musulmon cho'loq,-dedi, uning yonidagi kichkina tomosha qovoqni turtib, bunov, Xudoybachcha, -dedi, suv qovoqni erkalab, "Nor kalla"( Normuhammad Qushbegi), -dedi. Qolg'an ikkita silliq qovoqchalarni " nosqovoq, yupqatomoq" deb qo'ydi. Ermakchilar kulishdilar".<sup>3</sup> Buyuk so'z san'atkori Abdulla Qodiriyning mashhur " O'tkan kunlar" asaridan olingan bu parchada "qovoq" florionimi orqali kulgi ifodalangan. Insonni ta'riflash uchun tanlab olinadigan florionimlar orasida "qovoq" florionimi juda ko'p ma'nolarda ishlatilib, asosan, aqlsiz, axmoq diffirensial semalarni ifodalaydi. Qovoq florionimi kinoyali va kesatqli kulgining paydo bo'lishi uchun xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kulgi uyg'otishda florionimlarning o'rni beqiyos bo'lib, ularni ilmiy-nazariy tahlillarimizdan kelib chiqqan holda ikki guruhga bo'lishimiz mumkin: 1. insonni tashqi ko'rinishi yoki shaklini ifodalash orqali kulgi uyg'otuvchi metaforik florionimlar: qovoq bosh, bodring kalla kabi. 2. Insonning xarakter xususiyatlari va saviyasini belgilovchi metaforik florionimlar: qovoq devona kabi.

Xulosa qilib aytganda, kulgi inson kayfiyati bilan bog'liq hodisa bo'lib, badiiy asarlarda ijodkorning obrazga nisbatan munosabatini ifodalash bilan birgalikda asarning estetik qimmatini oshiradi. KIitobxonga ma'naviy zavq berish xususiyatiga ega bo'ladi. Badiiy asarlarda florionimlar orqali kulgi uyg'otish hodisasi adabiyotshunoslikda o'rganilmagan mavzu bo'lib, alohida tadqiqotni talab qiladi. O'zbek tilida har bir qator o'simlik nomlari ko'chma ma'noda qo'llaniladi. O'simliklar orqali insonning qaysidir o'ziga xos husni va xarakterini ta'riflashda ishlatilishi borki, ular umummilliy va madaniy

<sup>3</sup> Qodiriy A. O'tkan kunlar. Toshkent. G'afur G'ulom nashriyoti. 2017. B-157-158.

xususiyatlardan kelib chiqqan holda faqat o'zbek tiliga xosdir va faqat o'zbek millatiga xos bo'lgan samimiy kulgiga sabab bo'ladi.

Adabiyot inson qalbini, uning dardu tashvishlarini, xalqning orzu-intilishlarini, rasm-rusm, urf-odatlarini, yashash tarzini betakror so'z, ohang va serjilo ranglarda ifoda etuvchi ma'naviy vositadir. Badiiy asarlarning estetik qimmatini ta'minlovchi adabiy vositalardan foydalanish muallifga imkoniyat eshiklarini ochadi. Badiiy asarlarda kulgi tiplarini yaratishda va kulgi uyg'otishda lingvistik vositalardan biri bo'lgan "faunimlar" alohida ahamiyat kasb etadi.

Faunim- lotincha 'fauna' so'zidan olingan bo'lib, o'rmon va dalalar xudosi, Rim mifologiyasida hayvonlar podasi homiysi, -degan ma'nolarga teng.<sup>4</sup> Ilmiy nuqtai nazardan muayyan hududda yoki akvatoriyada yashovchi hayvon turlari majmui. Fanda Fauna turli sistematik kategoriyalardagi ma'lum davrga oid yoki ma'lum geologik qatlamga mansub hayvonlarni ifodalash uchun ishlatiladi.<sup>5</sup> Hayvonot dunyosining sistematik tarkibi to'g'risidagi yirik asarlar ham fauna deb ataladi.<sup>6</sup> Shu mantiqdan kelib chiqib, faunimlar tilshunoslikda hayvonlar turkumiga oid terminlarni ifodalovchi sohadir. Ayrim ilmiy adabiyotlarda lingvistik faunimlar "zoonimlar" ham deb yuritiladi. Zamonaviy o'zbek adabiyotining barcha janrlari tarkibida lingvistik faunimlar uchraydi. Ular badiiy asar tarkibida qo'llanib, mutoyiba, kinoya, kesatiq, hajv va lof xususiyatiga ega bo'lgan kulgili holatlarni keltirib chiqaradi. Fikrimizni quyidagi misollar asosida sharhlaymiz:

Polizzorim sori tunda g'alat hayvon bosib kelmish,  
Ne hayvonki, necha chaqrim yiroqdin hid sasib kelmish.  
Alimquldan so'rab bilsam oning nomi ekan to'ng'iz,  
Tarang qopda go'shtmidir yo o'rmalovchi hasib kelmish.<sup>7</sup>

Keltirilgan she'r parchasida "to'ng'iz" faunimi beg'am va tekinxo'r, ichkilikka ruju qo'ygan, jamiyatimizda juda ko'p uchraydigan shaxslarga nisbatan qo'llanuvchi yovvoyi hayvon turidir. Ushbu "to'ng'iz"ning "tarang qopda g'sht", "o'rmalovchi hasib"ga o'xshatib, kinoyali tarzda tasvirlanishi kesatqli kulgiga sabab bo'lgan. Shu bilan birga beg'am kishilar semiz-go'shtdor sifatida ko'rinishga ega bo'lishi hayot mantiqiga benihoya mos ifoda usulidir. Anvar Obidjon "to'ng'iz" faunimini she'r parchasida qo'llash orqali ishyoqmas kishilarning "ekin-tekinda emas" balki polizning tayyorida paydo bo'lishini kinoya kulgisi ostiga oladi. Lingvistik faunimlar ayrim asarlarda o'z ma'nosida qo'llanib, o'zi ifoda etayotgan hayvonni asl mohiyatini ham anglatishi mumkin. Badiiy asarlarda xuddi shunday tasvir vositalari ham uchraydi:

Eshakni urmasin o'g'ri, ona tomda yotay poylab,  
Sholchai eski bo'yram bor, paxtaliroq to'shak bergil.<sup>8</sup>

Yuqorida keltirilgan parchaga e'tibor beradigan bo'lsak, "eshak" lingvistik faunimi o'z ma'nosida qo'llangan. Lekin masalaga hayotiy real ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, tomga yotib qo'riqlash uchun eshakdanda muhim bo'lgan buyumlar borligini anglaymiz. Aynan gapning egasi nutqida qo'riqlash uchun "eshak" lingvistik faunimini tanlanishining o'zidayoq kitobxonda mutoyiba kulgisi paydo bo'ladi. Yuqoridagi mulohazalardan shu mantiq anglashiladiki, asl ma'nosida qo'llangan ayrim lingvistik faunimlar badiiy asar matnidan kelib chiqqan holda kulgi uyg'otishga sabab bo'ladi. Faunimlar kontekstda turli xil ma'nolarni ifodalab, kitobxonga kulgi kayfiyatini bag'ishlaydi:

Nazarqul oshtovoq ushlab, boshladi daf'atan xonish,

<sup>4</sup> <https://qomus.info.uz>.

<sup>5</sup> <http://herba.msu.ru.school.sch-ru>.

<sup>6</sup> <http://ru.china-embassy.gov.cn.rus>.

<sup>7</sup> Obidjon Anvar. "Gulmat Shoshiyning yovvoyi devoni". Toshkent. Sharq. 2017. b-31.

<sup>8</sup> O'sha joyda. B-30.

Mov mushukning fig'onini eslatardi tovush mungi.<sup>9</sup>

“Mov” so'ziga muallif “bahorda ersiragan mushuk” deya izoh keltiradi. Aynan izohning o'zidanoq kitobxonda kulgi kayfiyati paydo bo'ladi. O'xshatish-tashbehga asoslangan “mushuk” faunimi orqali ichib olib, ezmalanadigan kishilar obrazi tasvirlangan. Adib mushukning beozor kishilar oyog'iga suykilib, mehr istaydigan hayot mantiqiga xos bo'lgan xususiyatni nozik ilg'agan holda badiiy matnga singdirgan. Ana shu mantiqni anglagan kitobxon sarhush odamning “mov mushukning fig'oniga” o'xshash xirgoyisidan estetik zavqlanadi, beixtiyor kulgiga moyillik sezadi. Ilgari kulgi bayramlarda, marosimlarda, tantanalarda askiyalar tarzida mavjud bo'lsa, bizning davrimizga kelib xalq kulgisi badiiy adabiyot namunalarining barcha turlari tarkibiga kirib ulgurdi. Biz yashab turgan davrda Said Ahmad, Ne'mat Aminov, O'tkir Hoshimov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon kabi adiblarning asarlari misolida kulgi adabiyoti paydo bo'ldi deb atash imkoniyati paydo bo'ldi. Ilgari kulgi folklor sintezlari asosida sanoqli asarlar tarkibida uchrasa, juda ko'p asarlarda matnning dominant sifati sifatida kulgi dastlabki o'rinni egalladi.” Hajv adabiyotida kulgi matn poetikasi va semantikasining tarkibiy markazi rolini o'ynaydi”.<sup>10</sup>

Lingvistik faunimlar badiiy asarlarda ayrum hollarda partonimik xususiyat kasb etadi. Yani butin-bo'lak munosabati asosida tasvirlanib, kulgi uyg'otishda qo'llaniladi: “Humo Xartum deganlari mirzaterakdek novcha va ingichka bir chol ekan. Uning noksimon kallasi bo'yin ustida emas, yelkalari orasida qistirig'lik turganga o'xshaydi”.<sup>11</sup> Ushbu badiiy asar parchasida “mirzaterakdek” va “noksimon” florionimlari bilan birga fil faunimining bir qismi bo'lgan “xartum” faunimi qo'llangan. Asarda keltirilgan florionimlar cholning bo'yi va boshining o'xshashlik asosida tasvirlasa, “xartum” faunimi esa, cholning shalviragan gavdasi va uzun oriq tanasini tasvirlash uchun qo'llangan. Natijada engil kulgiga sabab bo'lgan. M.M.Baxtin kulgi haqida so'z yuritir ekan, “.kulgining xalqqa xos ikkilanishli varianti kulganlarning o'ziga qaratilgan kulgi bilan tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan xalq kulgisi ikki tomonlama, chunki u bir-birini istisno qiluvchi tamoyillarni birlashtiradi”.<sup>12</sup> D.S.Lixachev esa “..adabiyotga kulgining kirib kelishi yangi adabiy-madaniy fakt bo'lib, asrlar davomida taraqqiy qilib kelgan an'anaviy adabiyot emas, balki odamlarning dunyoqarashi va munosabatining ifodasi bo'lib, ularning kutilmagan badiiy najoti hamdir”.<sup>13</sup> Demak kulgi badiiy adabiyot taraqqiyoti uchun muhim omil sanaladi. Lingvistik faunimlar badiiy asarlarda kulgi uyg'otishda samarali vositalardan biri sanaladi: “Kecha bir ho'kiz maysazorda uning inini tepalab o'tgandi. Hozir o'sha molfahmni qo'qqisdan uchratib qoldiyu, bora solib qanshariga ayamay musht tortdi”.<sup>14</sup> Yana shunga o'xshash misol: “Qo'lga tushding-ku, maraz!- Xo'roz shaklidagi skelet kekkayib bir qadam oldinga chiqdi”.<sup>15</sup> Xalq kulgi madaniyatini yozma adabiyotga ta'sirini o'rgangan rus olimi M.M.Baxtin lingvistik ta'sirni “adabiyotning karnavalizatsiyasi” deb ataydi. Bunday transpozitsiya adabiyot tabiatining murakkabligini ta'kidlaydi. Karnaval ramziy, hissiy, aniq shakllarning butun tilini ishlab chiqqanini aytib o'tadi. Katta va murakkab tillardan bir butun individual, karnaval, imo-ishoralarga, ommaviy harakatlarga asoslangan adabiyot tilini ishlab chiqqanini alohida ta'kidlaydi. Aytish mumkinki, bu til alohida har qanday til kabi uning barcha shakllariga kirib brogan yagona lekin murakkab karnaval dunyoqarashini

<sup>9</sup> O'sha joyda. b-26.

<sup>10</sup> Karasev L.V. “Filosofiya smexa”. Moskva. RGGU. 1996. b-34.

<sup>11</sup> Obidjon Anvar. “Alamazon va uning piyodalari”. Toshkent. Sharq. 2019. B-31.

<sup>12</sup> Baxtin M.M. “Fransua Rable ijodi va o'rta asrlar hamda uyg'onish davri xalq madaniyati”. Moskva. Nauka. 1965.

<sup>13</sup> Lixachev D.S. “X-XI-asrlar rus adabiyotining rivojlanishi: davrlar va uslublar. Moskva. Nauka. 1973. b-162.

<sup>14</sup> Obidjon Anvar. “Yengilmas jangchi”. Toshkent. Ziyo. 2019. B-218.

<sup>15</sup> O'sha joyda. B-219.



ifodalagan. Bu tilni og'zaki tilga hech qanday tarzda to'liq va adekvat tarjima qilib bo'lmaydi. Uo'ziga xos hissiy xarakter jihatidan o'zi bilan bog'liq bo'lgan badiiy tasvirlar tiliga ma'lum bir transpozitsiyani beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, lingvistik faunimlar orqali badiiy adabiyotda kulgi uyg'otish samarali usullardan biri bo'lib, o'zbek adiblari badiiy asarning xalq tiliga va ruhiy holatiga yaqin bo'lishi va asarning badiiy qimmatini oshirishda faunimlardan keng foydalanganlar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hayitov H. A. Sharq mumtoz adabiyotida ohang talqini //Мировая наука. – 2019. – №. 8. – С. 3-5.  
Hayitov H. A. Literary influence and artistic image //Экономика и социум. – 2019. – №. 8. – С. 11-14.
2. Ahmadovich H. H., Amrulloevna S. D. XX ASR QISSACHILIGI TARAQQIYOTIDA FOLKLORNING LATIFA JANRI TA'SIRI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 302-304.
3. Ahmadovich H. H. Expression of Folklorisms in the Works of Ghafur Ghulam //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2022. – T. 14. – С. 101-105.
4. Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG 'ICH SINFLARDA O 'ZBEK QISSALARI TAHLILINING INNOVATSION USULLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 350-352.
5. Ahmadovich H. H. et al. O 'RXUN-YENISEY BITIKLARIDA TALIM-TARBIYA TO 'G 'RISIDAGI FIKRLARNING YORITILISHI VA ULARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 349-350.
6. Ahmadovich H. H. et al. IJODIY TOPSHIRIQLAR O 'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 293-294.
7. Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA O 'ZLASHTIRISH JARAYONINING PSIXO-DIDAKTIK ASOSLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 332-334.
8. Ahmadovich H. H. et al. O 'QUVCHILARNING BILUV FAOLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN DARSDAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 343-345.
9. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O 'QUVCHILAR O 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 306-309.
10. Ahmadovich H. H., Aminovna A. S. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O 'YIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 100-102.
11. Ahmadovich H. H., Amrulloevna S. D. RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 248-250.
12. Ahmadovich K. H., Bahridinovna S. G. Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 6. – С. 141-145.

13. Ahmadovich K. H., ZokirovnaZ A. G. THE PROBLEM OF HUMAN EDUCATION AND MORALITY IN FOLKLORE //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 25. – С. 133-137.
14. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 130-133.
15. BuxDUPI H. A. H. et al. АКМЕОЛОГИЯ ВА УНИНГ О’QUVCHILAR О’ZLASHTIRISHINI TASHXISLASHDAGI O’RNI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 415-417.
16. Хайтов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/S. – С. 49-52.
17. Хайитов Х. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.
18. Nayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
19. Khoja o’g’li T., Ahmadovich K. H. Advanced Characteristics of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 9. – С. 1-4.
20. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ХИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 140-144.
21. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. О ‘QUVCHILAR О ‘ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 306-309.
22. Akhmadovich X. X. et al. ENG QADIMGI MA’RIFIY YODGORLIKLARNI O ‘RGANISHNING AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 281-285.
23. Хайитов Х. А. ҒАФУР ҒУЛОМНИНГ ХАЛҚ ЛАТИФАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 679-687.
24. Akhmadovich H. H. Khoja nasriddin afandi as people's hero //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 1562-1565.
25. Akhmadovich K. K. Symbolism of Birds in Uzbek Literature //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 4. – С. 59-63.